



XALQ DEPUTATLARI NAVOIY VILOYATI KENGASHI QARORI

210100, Navoiy sh., Islom Karimov sh. 77 A, tel: (79) 229-62-80, e-mail: navoi@exat.uz, info@navoi.uz

2023 - yil 11 - yanvar

VI-44-1-5-0-K/23

Navoiy viloyat hokimligi

Navoiy viloyatida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun jismoniy va yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffisiyentlarni tasdiqlash haqida

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 429 va 437-moddalari va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 3 dekabrdagi “Resurs soliqlari va mol-mulk solig‘ini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-6121-Farmoni hamda O‘zbekiston Respublikasining “Soliq va byudjet siyosatining 2023 yilga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘sishchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-812-sonli Qonuniga muvofiq viloyat moliya bosh boshqarmasi va davlat soliq boshqarmasining “qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun jismoniy va yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffisiyentlar” loyihasi bo‘yicha kiritgan takliflarini muhokama etib, xalq deputatlari viloyat Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Soliq va byudjet siyosatining 2023 yilga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘sishchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-812-sonli Qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Moliya

vazirligining 2022 yil 9 dekabrdagi qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffisiyentlarni qo‘llash bo‘yicha 06/04-34/4103-xdfu-sonli xatiga ko‘ra, quyidagilar:

yer solig‘ining amaldagi soliq stavkalari 2023 yilda 1.1 baravarga indeksasiya qilinganligi;

Navoiy viloyati uchun qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha yuridik shaxslarga 1 ga. uchun 32,0 mln. so‘m va jismoniy shaxslarga 1 kv.m uchun 286,0 so‘m bazaviy soliq stavkasi belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun jismoniy va yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffisiyentlar miqdorlarini belgilash bo‘yicha moliya bosh boshqarmasining hamda viloyat davlat soliq boshqarmasining qo‘shma taklifi ma’qullansin.

3. Quyidagilar:

Navoiy viloyati hududida 2023 yil uchun qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun jismoniy shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffisiyentlar miqdorlari 1-ilovaga muvofiq;

Navoiy viloyati hududida 2023 yil uchun qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffisiyentlar miqdorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, soliq idoralariga jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i (yakka tartibdagi tadbirkorlardan tashqari) summasi 2022 yil uchun hisoblangan soliq summasining 1,3 baravaridan oshmasligi lozimligi;

xalq deputatlari tuman va shahar Kengashlariga xalq deputatlari viloyat Kengashi tomonidan belgilangan yer solig‘i stavkalariga qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun ularning hududlarida joylashgan daha, massiv, mahalla, ko‘cha kesimida 0,7 dan 3,0 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffisiyentlarni kiritish huquqi berilganligi alohida ko‘rsatib o‘tilsin.

4. Navoiy viloyati hokimligi (T.Atamurodov), viloyat moliya bosh

boshqarmasi (D.Ochilov), viloyat davlat soliq boshqarmasi (A.Botiraliyev) 3 kun muddatda qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan koeffisiyentlarni shahar va tumanlarga yetkazilishini ta’minlasin.

5. Navoiy viloyati davlat soliq boshqarmasi (A.Botiraliyev) yer solig‘i bo‘yicha tasdiqlangan soliq stavkalarini barcha soliq to‘lovchilarga soliq to‘lovchining shaxsiy kabineti orqali yetkazilishini ta’minlasin.

6. Viloyat davlat soliq boshqarmasi (A.Botiraliyev)ga hududiy soliq organlari bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda o‘z vaqtida byudjetga undirilishini nazoratga olib borish;

tegishli byudjetning ijro etilishi jarayonida unga tushumlarni ko‘paytirish bo‘yicha qo‘srimcha zaxiralarni aniqlash;

yer solig‘ining soliq bazasini oshirish, ya’ni xatlov ishlarini samarali tashkil etib borish topshirilsin.

7. Mazkur qaror rasman e’lon qilinsin hamda viloyat hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

8. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

9. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investisiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (G‘.Aliyev) hamda viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari (T.Atamurodov) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



N.Tursunov

Xalq deputatlari Navoiy viloyat
Kengashining
2023 yil 11 yanvardagi
VI-44-1-5-0-K/23-son qaroriga
1-ilova

**Navoiy viloyati hududida 2023 yil uchun qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan
yerlar uchun jismoniy shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda belgilangan
bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi
koeffisiyentlar
miqdorlari**

so‘mda

T/r	Shahar, tumanlar nomi	2023 yil uchun belgilangan soliq stavkasi		
		Soliq kodeksidagi bazaviy stavka <i>(1 kv.metr uchun)</i>	Qo‘llanilgan koeffisiyent	Soliq stavkasining aniq miqdori <i>(1 kv.metr uchun)</i>
1	Navoiy shahar	286,0	1,60	457,6
2	Zarafshon shahar	286,0	1,40	400,4
3	Uchquduq tuman	286,0	1,30	371,8
4	Konimex tuman	286,0	1,25	357,5
5	Qiziltepa tuman	286,0	1,35	386,1
6	Tomdi tuman	286,0	1,00	286,0
7	Navbahor tuman	286,0	1,30	371,8
8	Xatirchi tuman	286,0	1,30	371,8
9	Nurota tuman	286,0	1,25	357,5
10	Karmana tuman	286,0	1,40	400,4
11	G‘ozg‘on shahar	286,0	1,10	314,6

Xalq deputatlari Navoiy viloyat
Kengashining
2023 yil 11 yanvardagi
VI-44-1-5-0-K/23-son qaroriga
2-ilova

**Navoiy viloyati hududida 2023 yil uchun qishloq xo‘jaligiga
mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq
miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan
kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffisiyentlar miqdorlari**

so‘mda

T/r	Shahar, tumanlar nomi	2023 yil uchun belgilangan soliq stavkasi		
		Soliq kodeksidagi bazaviy stavka (1 hektar uchun)	Qo‘llanilgan koeffisiyent	Soliq stavkasining aniq miqdori (1 hektar uchun)
1	Navoiy shahar	32 000 000,0	1,60	51 200 000
2	Zarafshon shahar	32 000 000,0	1,30	41 600 000
3	Uchquduq tuman	32 000 000,0	1,20	38 400 000
4	Konimex tuman	32 000 000,0	1,20	38 400 000
5	Qiziltepa tuman	32 000 000,0	1,35	43 200 000
6	Tomdi tuman	32 000 000,0	1,00	32 000 000
7	Navbahor tuman	32 000 000,0	1,20	38 400 000
8	Xatirchi tuman	32 000 000,0	1,25	40 000 000
9	Nurota tuman	32 000 000,0	1,20	38 400 000
10	Karmana tuman	32 000 000,0	1,35	43 200 000
11	G‘ozg‘on shahar	32 000 000,0	1,10	35 200 000